

Glossariy

Mikroskop (zarrabin) – Ko‘zga ko‘rinmaydigan juda kichik obyektlarni va mikrozararlarni kattalashtirish uchun ishlatiladigan optik asbob.

Okulyar – Mikroskop, durbin yoki kuzatish trubasining kuzatib qaraydigan qismi bo‘lib, bir yoki bir nechta linzalardan tashkil topgan.

Obyektiv – Mikroskopning optik qismi bo‘lib, bir nechta linzalar yoki ko‘zgulardan tashkil topadi. Shuningdek, fotoapparatning obyektning teskari tasvirini hosil qiladigan qismiga ham obyektiv deyiladi.

Buyum stolchasi – Mikroskopda kuzatilayotgan obyektни joylashtirish uchun mo‘ljallangan qism.

Doimiy mikropreparat – Maxsus laboratoriyalarda tayyorlanib, uzoq vaqt davomida ishlatilishi mumkin bo‘lgan mikropreparatlar to‘plami.

Vaqtinchalik preparat – O‘rganilayotgan obyektning bir qismidan tayyorlangan va ma'lum bir qismining tuzilishini o‘rganish maqsadida laboratoriyada tayyorlangan preparat.

Qoplagich oyna – Tayyorlangan preparatning ustini yopish, shikastlanmasligi uchun ishlatiladigan yupqa, shaffof shishasimon oyna.

Buyum oynasi – Preparat tayyorlashda ishlatiladigan, odatda to‘rtburchak shaklidagi shisha bo‘lagi.